Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyor Oybek Ulug'bek o'g'li, Normomina Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umiddbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollari	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025)	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot"ning o'rni	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	



AHOLI DAROMADLARI VA TA'LIM DARAJALARINI TURMUSH DARAJASIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Xusinov I.I.

TDIU "Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrası
i.f.n. professori xusinovii@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining daromad darajasi hamda ta'limga ega bo'lishi turmush darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash va turar joy sharoitlari kabi omillar bilan daromad va ta'lim darajalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Ko'p o'zgaruvchili regressiya modeli asosida olingan natijalar aholining daromad va bilim saviyasi oshgani sari ularning turmush sifati sezilarli darajada yaxshilanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, hududlar kesimida tengsizlik darajalari ham tahlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: aholi daromadi, ta'lim darajasi, turmush sifati, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy tahlil.

Abstract: This article examines the impact of household income and educational attainment on living standards. Using empirical data, the study explores the relationship between income and education levels with indicators such as economic well-being, access to healthcare, housing conditions, and social protection. The results of multivariate regression analysis demonstrate that higher income and education significantly improve the quality of life. Regional disparities are also analyzed, and policy recommendations are proposed to address social inequality.

Key words: household income, education level, living standards, social inequality, economic analysis.

Аннотация: В статье анализируется влияние уровня доходов и образования населения на качество жизни. На основе эмпирических данных исследуется взаимосвязь между образовательным уровнем, доходами и такими показателями, как социальное благополучие, доступ к медицинским услугам, условия проживания и уровень социальной защищённости. Результаты многовариантного регрессионного анализа подтверждают, что повышение доходов и уровня образования способствует существенному улучшению качества жизни. Также рассматриваются региональные различия и предлагаются рекомендации по снижению социального неравенства.

Ключевые слова: доходы населения, уровень образования, качество жизни, социальное неравенство, экономический анализ.

KIRISH

Har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy harakatlarni amaliyotga joriy etishidan qat'i nazar, ularning yakuniy maqsadi xalq manfaatlarini ta'minlash, aholi turmush darajasini yaxshilash hamda yetakchi mamlakatlar safidan o'rin olishga qaratilgandir.

"Turmush darajasi" tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti sezilarli hissa qo'shgan. 1960-yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari bo'yicha hisobot tayyorlagan. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lida dastlabki qadam bo'lgan. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining so'nggi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan.

BMT tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitariya-gigiyena sharoitlarining mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol darajasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxlari, transport vositalari mavjudligi, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlari, ijtimoiy ta'minot hamda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda ham ushbu xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan "Ming yillik rivojlanish dasturi" hamda 2015-yilda tasdiqlangan "2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi" bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologik buzilishning oldini olish hamda aholining sog'lig'ini saqlashga qaratilgan muhim tadbirlarni o'z ichiga oladi.



Ma'lumki, aholi turmush darajasini ko'pchilik aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi orqali baholashga odatlangan. Aslida esa bu ancha keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Hozircha esa mavjud kontsepsiyalarni aholi turmush darajasi sifatini har tomonlama aks ettiruvchi yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarining samaradorligi, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar hamda, albatta, hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar va amaliy harakatlar samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida yettita yo'nalish keltirilgan bo'lib, ushbu yo'nalishlarning barchasi aholining yaxshi turmush kechirishiga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Bevosita to'rtinchi yo'nalish — adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan bo'lib, aynan shu maqsadlarga erishishga qaratilgan 55 ta aniq chora-tadbirlar rejasi belgilangan [1].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadqiqotimiz obyekti hisoblangan aholi turmush darajasi — aholi daromadlari, sog'liqni saqlash, savodxonlik darajasi, madaniy hayoti, bo'sh vaqtning mavjudligi, atrof-muhit kabi bir qator omillarga bog'liq. Shu bilan birga, aholi turmush darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi samaradorlikni baholashning eng muhim mezonini hisoblanadi. Uni oshirib borish esa ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir.

Q. H. Abdurahmonov va Sh. R. Xolmo'minovning tadqiqotlarida aholi turmush darajasiga ta'rif berilib, uni oshirishga doir nazariy ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, aholi turmush darajasi deganda ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda insonlar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Ushbu maqolada aynan shu ta'rif asosida statistik tahlillar amalga oshiriladi va tegishli xulosa hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi [4].

A. O'lmasovning "Iqtisodiyot asoslari" kitobida aholi turmush darajasi va farovonligining bir nechta ta'riflari nazariy jihatdan keltirilib, u doimiy o'zgaruvchan, turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlar tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan esa ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovar va xizmatlar bozorida holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanilishi qayd etilgan. Kitobda aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham berilgan [5].

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan muntazam e'lon qilinayotgan axborotlar asosida mamlakatimizda aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish masalalariga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlar o'tkazilib, xulosalar chiqarilgan [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz mavzusi mamlakatimiz aholisi turmush darajasi va farovonligini oshirish masalalariga bag'ishlanganligi sababli, eng avvalo, mavzu doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat qarorlari bilan belgilangan vazifalar hamda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari o'rganilib, mavzuni o'rganilganlik darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazlarni asoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholi turmush darajasi deganda ularning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda insonlar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Insonlar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar juda ko'p ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Bularga misol qilib mehnat sharoiti, ta'lim sohasi, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi ko'plab ehtiyojlarni aytish mumkin.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Turmush darajasiga to'liq ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida esa bu ancha kengroq tushunchadir. BMTning tavsiyasiga ko'ra, tug'ilish, o'lim, umr ko'rish davomiyligi, sanitar-gigiyenik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasi, uy-joy, ta'lim olish va madaniy imkoniyatlar, ish sharoitlari va bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste'mol narxлари, transport vositalari bilan ta'minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish, ijtimoiy ta'minot, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi yo'nalishlar turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tarkibiga kiradi.



Ushbu ko'rsatkichlar ichida eng asosiysi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar hajmi bo'lib, mazkur ko'rsatkich nafaqat mamlakat aholisining turmush darajasini baholashda, balki xalqaro taqqoslamalarda ham foydalanish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh Assambleyasida 2000-yilda qabul qilingan "Ming yillik rivojlanish dasturi" hamda 2015-yilda tasdiqlangan "2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi" bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy hamda ijtimoiy ehtiyojlari ko'rsatkichlarini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Unga to'liq ilmiy ta'rif beradigan bo'lsak, bu jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qondirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Ma'lumki, aholi turmush darajasini barchamiz aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar va iste'mol hajmi miqdorining ortishi yoki kamayishi bilan baholashga odatlanganmiz. Aslida u ancha kengroq tushuncha hisoblanadi. Lekin hozircha bu boradagi konsepsiyalarni aholining turmush darajasi sifatini har tomonlama xarakterlab beradigan yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul mavjud emas.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholi turmush darajasining yaxshilanishi bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, albatta hukumat tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar hamda amaliy harakatlar natijasiga bog'liq bo'ladi.

Daromad — bu rezidentlar ixtiyoriga tushgan pul tushumlaridir. Mohiyati jihatidan daromad rezidentlarning yalpi ichki mahsulot (YalIM)dagi hissasi bo'lib, pul shaklida ifoda etiladi (1-rasm).



1-rasm. Daromadning turlari

Aholining turmush darajasi — sotsial-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Moddiy ehtiyojlarga insonning oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, maishiy va kommunal xizmatlardan foydalanish imkoniyatlariga bo'lgan ehtiyoji kiradi. Ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarga esa kishilarning bilimi, malakasi va ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish kabi jihatlariga bo'lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholi turmush darajasini dastlab quyidagi ko'rsatkichlar umumlashtirib ifodalaydi:

- jon boshiga to'g'ri keladigan sof milliy daromad;
- nominal va real daromad indeksleri;
- turmush qiymati indeksi;
- inson barkamolligi indeksi;
- qashshoqlik indeksi;
- aholi pul daromadlari va xarajatlari balans;



yashash minimumi va boshqalar.

Mazkur ko'rsatkichlar qiymat-pul ifodasida bo'lib, ular aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirish darajasini aks ettiradi. Aholi jon boshiga yaratilgan sof milliy daromad (SMD) esa mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasini va aholi turmush darajasini ifodalovchi asosiy iqtisodiy mezonlardan biridir.

$$\hat{E}_{\text{OD}} = \frac{\hat{S} D}{\hat{A}}$$

Bu yerda: K_{td} – aholi turmush darajasi koeffitsiyenti; SMD – sof milliy daromad; A – aholining o'rtacha soni.

Aholi turmush darajasining yuksalishi uchun sof milliy daromad (SMD)ning o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi lozim. Aks holda, yaratilayotgan daromadlar aholining son jihatidan ko'payishi tufayli ularning jon boshiga to'g'ri keladigan ulushini pasaytiradi va bu holat turmush darajasining real yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Bunday nisbatni aniqlash uchun turmush darajasi indeksini hisoblash talab etiladi:

$$J_{\text{atd}} = \frac{\hat{S} D_1}{\hat{A}_1} : \frac{\hat{S} D_0}{\hat{A}_0} \quad \hat{E}_{\text{atd}} = \hat{E}_{\text{OD}_1} : \hat{E}_{\text{OD}_0}$$

Bu yerda: J_{atd} – aholi turmush darajasi indeksi.

Agar $J_{\text{atd}} > 1$ bo'lsa, iqtisodiy o'sish sodir bo'lgan, binobarin aholi turmush darajasi oshgan. Agar $J_{\text{atd}} < 1$ bo'lsa, aksincha. $J_{\text{atd}} = 1$ bo'lganda aholi turmush darajasi ham o'zgarmagan.

Nominal daromad – bu bevosita xodim mehnatining miqdori va sifatiga qarab to'lanadigan haq bo'lib, u pul shaklidagi jami daromadni o'z ichiga oladi.

Pul daromadining o'zi, ya'ni nominal daromad aholi turmush darajasini aniq ifodalay olmaydi, pulning real qadri iste'mol tovarlari narxiga ham bog'liq. Shu sababli real daromad:

nominal daromadning miqdoriga;

daromaddan chegirilgan har xil soliqlar va to'lovlarga, ya'ni pul daromadining egasi qo'liga tegadigan qismiga;

transfert to'lovlariga, ya'ni pensiya, nafaqa, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, tibbiy sug'urta kabilardan tushgan daromatlarga bog'liq.

Real daromad jami pul daromatlari (brutto daromad)dan turli to'lovlar (soliqlar, sotsial sug'urta to'lovlari) chegirib tashlangandan keyin qolgan qismi – sof (netto) pul daromadini baho indeksiga bo'lish yordamida aniqlanadi:

$$RD = \frac{ND + S}{J_p}$$

Bu yerda: TT – transfert to'lovlar evaziga tushgan daromadlar; S – soliqlar va turli to'lovlar; J_p – bahoning umumiy indeksi.


Real daromad — iste'mol tovarlari va xilma-xil xizmatlar ko'rinishida ifodalangan daromad bo'lib, pul daromadining xarid qobiliyatini bildiradi va aholining turmush darajasini umumlashtirilgan holda tavsiflaydi.

Umumiy daromad esa aholi farovonligi darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich nafaqat mehnat faoliyati va mustaqil ish bilan bandlikdan olinadigan daromatlarni, balki mulkdan olinadigan daromatlarni (foizlar, dividendlar, gonoralar va boshqalar) hamda transfertlardan (pensiya, nafaqalar, stipendiyalar, pul o'tkazmalari) tushadigan mablag'larni ham o'z ichiga oladi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad — bu ma'lum bir hududda (masalan, mamlakatda) aholi tomonidan olingan umumiy daromadning shu hududdagi jami aholi soniga nisbati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich har bir fuqaroning o'rtacha qancha daromad olayotganini baholashda, shuningdek, turli mintaqalar yoki mamlakatlar orasida turmush darajasini taqqoslashda muhim analitik vosita bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).



Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2024-yilning yanvar-dekabr oylari bo'yicha, ming so'm)



2-rasm. Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2024-yil, ming so'm)

Aholi daromadlari 2024-yilda nominal ko'rinishda 18,5 % ga, real ko'rinishda esa 8,1 % ga o'sishga erishdi. 2023-yilda esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 15 % va 4,6 % ni tashkil qilgan. Ya'ni, daromadlar o'sish sur'atlari bo'yicha ijobiy o'zgarish kuzatildi.

Yaxshilanish aholining jami daromadlari tarkibida yakka tartibdagi bandlikdan olinadigan daromadlarni, shu jumladan, norasmiy iqtisodiyot ko'rsatkichlarini hisobga olish asosida qayta ko'rib chiqilishi natijasida yuz berdi. Bu daromadlar 26 trillion so'mga baholandi. Ushbu ko'rsatkichlar hisobiga 2023-yilda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi 1,19 kvadrillion so'mga yoki 101,6 milliard dollargacha (avval — 1,06 kvadrillion so'm yoki 86,1 milliard dollar) yetdi. YaIM 2024-yilda ham o'sdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromadlar 16,1 % ga (shu jumladan, inflyatsiya hisobiga 5,9 % ga) oshdi. Bu ko'rsatkich yil davomida 20 million so'mdan 24,1 million so'mgacha (oyiga 2 million so'm) oshgan. O'tgan yilning shu davrida esa o'sish 12,6 % va 2,4 % ni tashkil qilgan edi.

Aholining turmush darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlardan yana biri aholining ta'lim darajasidir.

Ta'lim darajasi indeksi — Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan ishlab chiqilgan umumiy ko'rsatkich bo'lib, u ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat:

Kattalar savodxonligi indeksi (2/3 vazn);

Boshlang'ich, o'rta va oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar ulushi indeksi (1/3 vazn).

Ushbu ikki o'lchov yakuniy indeksda umumlashtirilib, 0 (minimal) dan 1 (maksimal) gacha bo'lgan raqamli qiymatlar tarzida standartlashtiriladi. Dunyo aholisining savodxonligi haqidagi ma'lumotlar milliy ro'yxatga olish natijalariga asoslanadi hamda YuNESKO statistika instituti tomonidan tuzilgan hisob-kitoblar bilan taqqoslanadi. Indeks har ikki yilda yangilanadi. Biroq, BMT ma'lumotlari odatda bir yilga kechiktirilgan holatda e'lon qilinadi, chunki xalqaro taqqoslashlar milliy statistika idoralari tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

2020-yilda nashr etilgan ta'lim darajasi indeksiga ko'ra, jahondagi eng yuqori o'rinni Germaniya egallagan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni esa Norvegiya va Buyuk Britaniya band etgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga (MDH) a'zo davlatlar ichida eng yuqori natijani Gruziya qayd etgan bo'lib, u jahonda 26-o'rinni egallagan. Qolgan MDH davlatlari esa quyidagicha joylashgan: Belarus (32), Qozog'iston (35), Rossiya (39), Ukraina (47), Armaniston (64), Qirg'iziston (70), O'zbekiston (71), Ozarbayjon (80), Moldova (82), Tojikiston (96), Turkmaniston (111) [10].



Bundan ko'rinadiki, ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar hali anchagina.

"O'zbek yoshlarining oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 5,7 barobarga oshdi: agar 2016-yilda bu ko'rsatkich 7,2 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 42 % ga yetdi. Ta'lim xizmatlari bozorida xorijiy va nodavlat ta'lim tashkilotlarining ishtiroki kengaydi. Oliy ta'lim muassasalari soni 211 taga yetdi, ulardan 112 tasi davlat, 30 tasi xorijiy va 69 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi. Oxirgi sakkiz yilda oliy ta'lim muassasalari soni 3,2 barobar oshdi (2016-yilda 64 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 211 taga yetgan).

Xalqaro tajriba asosida xorijiy ta'limni tan olish jarayonlari soddalashtirildi. Nostrifikatsiya amaliyotidan voz kechilib, "tan olish" mexanizmi joriy etildi.

Prezident Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjatda quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

Oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 % dan oshirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;

O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalari orasida flagmanlarga aylantirish;

Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan reytinglar (Quacquarelli Symonds, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) bo'yicha dunyoning birinchi 1 000 ta universiteti ro'yxatiga, shu jumladan, Milliy universitet va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'ringa kiritish;

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish.

Ushbu 2030-yilgacha bo'lgan rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan rejalarni izchil amalga oshirish ta'lim sohasida raqobatni kuchaytiradi va bu orqali ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Natijada, ta'lim darajasi indeksining yaxshilanishiga erishiladi va O'zbekiston mazkur ko'rsatkich bo'yicha jahon miqyosida o'ziga munosib o'rin egallashiga zamin yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarda samarali ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Birinchidan, aholiga yuqori daromad keltiruvchi ish o'rinlarini yaratish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ko'proq qo'shilgan qiymat qo'shadigan tarmoq korxonalarining soni va ulushini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat bandlik darajasini oshiradi, balki iqtisodiy faollik va yalpi ichki mahsulotga hissa qo'shadi.

Ikkinchidan, o'zini o'zi ish bilan ta'minlayotgan shaxslarga zarur infratuzilma va qonunchilik asosida sharoit yaratish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish, shu bilan birga, yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotganlar soni va salmog'ini kamaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida kam daromad oluvchilar ulushining yuqoriligi yashash qiymati masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantiradi. Shu sababli, aynan past daromadli qatlamning farovonligini oshirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Aholining turmush darajasini yanada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

bozorlarni aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan asosiy iste'mol tovarlari bilan barqaror ta'minlash, tovarlar taklifini rag'batlantirish, yetkazib berish zanjirini mustahkamlash orqali narxlarning keskin o'sishining oldini olish;

ishga layoqatsiz fuqarolar, shu jumladan, yolg'iz onalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga moliyaviy yordam ko'rsatish, ularni muhim iste'mol mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash;

qishloq hududlarda agrar sohani isloh qilish orqali yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

aholining maqbul uy-joy bilan ta'minlanishini rag'batlantirish, jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish, aholiga moliyaviy ta'lim berish va moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish;

zamonaviy ta'limni moliyalashtirish hajmini kengaytirish, o'quvchilarning axborot texnologiyalari, muhandislik, biotibbiyot va boshqa yuqori daromadli, zamonaviy sohalarga yo'naltirilishini ta'minlash;

kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun maktab va gimnaziya turlaridagi ta'lim muassasalarini ko'paytirish, ularning sifatli ta'lim olishiga teng imkoniyatlar yaratish.

Ushbu choralar aholining turmush darajasini izchil ravishda oshirishga xizmat qilishi bilan birga, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevorini shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. Салин В.Н., Шпаковская Е.П. Социально-экономическая статистика. – М.: 2001. – 399 с.
3. Дагбаева С.Д. Уровень жизни населения: пути решения проблемы бедности. – Улан-Удэ: 2008. – 35 с.
4. bdurahmonov Q.H., Xolmo'minov Sh.R. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: 2004.
5. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Mehnat, 1997.
6. Xusainov G'.L., Sayitkulova P.I. Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish masalalari // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2018. – №1. – B. 93–96.
7. Социально-экономическая статистика / Под ред. Б.И. Башкатова. Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 581 с.
8. G'oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – 125 b.
9. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010. – 621 b.
10. United Nations Development Programme. Education Index Report – 2021.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>